

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA HARAKAT FE'LLARINING QIYOSIY LEKSIK SEMANTIK TAHLILI

Zilola Mirzamuxamedova  
O'qituvchi  
Oriental universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** fe'l kategoriyasi, fe'l zamonlari, fe'l mayllari, fe'l semantikasi, arab va o'zbek tilshunosligi, bu mavzuni arab olimlari tomonidan o'rganilishi, asarlari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab va o'zbek tillarida fe'l so'z turkumi, uning tilshunoslar tomonidan o'rganilishi, har ikki tildagi harakat fe'llarining qiyosiy leksik-semantik tahlili tarzda yoritib o'tilgan. Maqolada arab va o'zbek tillaridagi fe'l so'z turkumining semantik guruhlariga bo'linishi ko'rsatilgan bo'lib, ularning leksik-semantik munosabatlarini o'rganishda ushbu fe'llarning sinonimlik va antonimlik xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Xususan, arab izohli lug'ati va arabcha-o'zbekcha lug'atlarda kelmoq harakat fe'lining qanday ma'nolar kasb etishi hamda ushbu fe'l predloglar bilan kelganda qanday semantik o'zgarishlarga duch kelishi izohlangan. Har ikkala tildagi izohli lug'atlarda berilgan ushbu fe'llar ma'nolarining miqdori o'rtasida sezarli farq borligini ko'rish mumkin. Kelmoq fe'li har ikki tilning frazeologik iboralar tarkibida ham kelishi mumkin bo'lib, mazkur fe'ning arab va o'zbek tillaridagi frazeologik iboralarda qo'llanilishi o'zaro qiyoslanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Hozirgi davrda jahon tilshunosligida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunoslari harakat fe'llarining morfologik, stilistik, semantik valentik xususiyatlarini o'rganib, ularni o'z ilmiy ishlarida bafurja yoritganlar. Arab tilshunosligida esa, olimlar asosan fe'l kategoriyasiga ana'naviy yondashib, uni morfologik jihatdan o'rganganlar. O'zbek tilidagi harakat fe'li mazmunan arab tilidagi kelmoq leksemasiga mos keladi. O'zbek tilidagi "kelmoq" fe'lga xos ba'zi ma'nolarni

ifodalashda, ularning aynan arabcha muqobil variantini qo'llash lozim. Ba'zi holatlarda esa o'zbek tilidagi ushbu harakat fe'lining anglatgan ma'nolari arab tilida ham, aynan "kelmoq" fe'li bilan ifodalanadi, biroq ushbu holatda arab tilida "kelmoq" ma'nosini beruvchi sinonim fe'llardan kutilgan ma'noni ifodalovchi aynan bir fe'lni tanlash lozim. O'zbek tilidagi harakat fe'lining istak va egalik qo'shimchalarini olgan fe'l shakli bilan birikkan ko'rinishi arab tilida modal so'zlar, yuklamalar yordamida ifodalanadi. Maqolada ushbu holat misollar orqali izohlangan.

---

## COMPARATIVE LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF ACTION VERBS IN THE ARABIC AND UZBEK LANGUAGES

*Zilola Mirzamukhamedova*

*Teacher*

*Oriental University*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** verb category, verb tenses, verb moods, verb semantics, arabic and uzbek linguistics, the study of this topic by arabic scholars, works.

**Abstract:** : This article explains the set of verbs in Arabic and Uzbek, its study by linguists, a comparative lexical-semantic analysis of action verbs in both languages. The article provides the division of verbs in Arabic and Uzbek into semantic groups, and the study of their lexical-semantic relations shows the synonymous and antonymous features of these verbs. In particular, the Arabic explanatory dictionary and Arabic-Uzbek dictionaries explain the meaning of the verb to come and what semantic changes this verb encounters when it comes with prepositions. It can be seen that there is a significant difference between the amount of meaning of these verbs given in the explanatory dictionaries of both languages. The verb "come" can also be found in the phraseological expressions of both languages, and the use of this verb in the phraseological expressions of the Arabic and Uzbek languages has been compared, and their similarities and differences have been identified. There is a lot of research going on in world linguistics today. In particular, Uzbek linguists have studied the morphological, stylistic, semantic and other properties of action verbs and described them in detail in their scientific works. In Arabic linguistics, scholars have traditionally approached the category of verbs and studied them morphologically. In this article, the Uzbek verb action corresponds in content to the Arabic lexeme. In expressing some of the meanings of the Uzbek verb "to come", it is necessary to use their Arabic

alternative. In some cases, the meaning of this action verb in Uzbek is also expressed in Arabic by the verb "to come", but in this case it is expected from synonymous verbs meaning "to come" in Arabic. It is necessary to choose exactly one verb that represents 'bread'. The Uzbek form of the action verb combined with the verb form with the suffixes of desire and possession is expressed in Arabic by modal words, prepositions. The article analyses this situation with examples.

---

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЛАГОЛОВ ДВИЖЕНИЯ В АРАБСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Зилола Мирзамухамедова*

*Учитель*

*Университет Oriental*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** категория глагола, глагольные времена, наклонения глагола, семантика глагола, арабское и узбекское языкознание, изучение этой темы арабскими учеными, труды.

**Аннотация:** В статье описан набор глаголов арабского и узбекского языков, его изучение лингвистами, проведен сравнительный лексико-семантический анализ глаголов действия в обоих языках. В статье показано деление глаголов арабского и узбекского языков на семантические группы, а исследование их лексико-семантических отношений показывает синонимичные и антонимичные особенности этих глаголов. В частности, арабский толковый словарь и арабско-узбекские словари объясняют значение глагола «приходить» и с какими семантическими изменениями сталкивается этот глагол, когда он приходит с предлогами. Видно, что существует значительная разница между количеством значений этих глаголов, приведенных в толковых словарях обоих языков. Глагол «приходить» также можно найти во фразеологических выражениях обоих языков, и было проведено сравнение использования этого глагола во фразеологических выражениях арабского и узбекского языков, и выявлены их сходства и различия. Сегодня в мировой лингвистике проводится много исследований. В частности, узбекские лингвисты изучили морфологические, стилистические, семантические и валентные свойства глаголов действия и подробно описали их в своих научных трудах. Однако в арабской лингвистике ученые традиционно подходили к категории глаголов и изучали их морфологически. В

этой статье узбекский глагол действие по содержанию соответствует арабской лексеме. При выражении некоторых значений узбекского глагола «приходить» необходимо использовать их арабскую альтернативу. В некоторых случаях значение этого глагола действия на узбекском языке также выражается на арабском языке глаголом «приходить», но в этом случае оно ожидается от синонимических глаголов, означающих «приходить» на арабском языке. Узбекская форма глагола действия в сочетании с формой глагола с суффиксами желания и обладания выражается в арабском языке модальными словами, предложениями, в статье поясняется эта ситуация на примерах.

## KIRISH

O'zbek tilshunosligida fe'l kategoriyasi Sh. Shukurov, A. Xojiyev, A.G'ulomov, G'. Abdurahmanov, Sh.Shoabdurahmonov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, harakat fe'llarining morfologik, stilistik hamda semantik valentlik jihatlari Q.Xoliqov, S.Muhamedova M.Sodiqova, M.Orazov tomonidan o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida fe'l faoliyat, sezgi, harakat, o'zgarish, mavjudlik, munosabat hamda taqlidiy fe'llar kabi semantik yo'nalishlarga ajratib ko'rsatilgan.

O'zbek tilidagi harakat fe'llaridagi leksik-semantik munosabatlarni o'rganishda ushbu fe'llarning sinonimlik va antonimlik xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilidagi harakat fe'llarining sinonimlik xususiyatlari o'rganilganda, ko'p ma'noni kasb etgan bir harakat fe'li ikki yoki undan ortiq ma'noga ega o'zaro sinonimik qatorni tashkil etishi mumkinligi ma'lum bo'ldi (*aynimoq, buzulmoq*).

Arab tilshunosligida fe'l deganda harakatni ifodalaydigan so'zlar tushunilib, bunday so'zlar qat'iylikni, yangilanish hamda sodir bo'lishni ifodalaydi. Tilshunoslar, asosan, arab tilidagi fe'l so'z turkumiga an'anaviy yondashgan holda, uni morfologik jihatdan bafurja o'rganganlar.

Zamonaviy arab tilshunoslari fe'llarni ma'nosiga ko'ra bir necha guruhga bo'ladilar.

1. Boshlanish-makon va zamonga kirish ma'nosini ifodalovchi fe'llar  
(أفعال الشروع مثل بدأ, شرع, أخذ);
2. Holat-belgini ifodalovchi fe'llar (الأفعال المفيدة الألوان و الحالة مثل إسود, إحمَر, أعمى);
3. Kasb-hunar sohalari doirasida qo'llanuvchi fe'llar  
(أفعال المهن مثل حصد, زرع);
4. Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish ma'nosini ifodalovchi fe'llar  
(. الأفعال المفيدة الانتقال من الحالة الواحدة إلى الثانية).

Arab tilshunosligida Qur'oni Karim suralaridagi o'rganilgan harakat fe'llari bilan bog'liq ilmiy ishlarni o'rganib, tahlil qilganimizda, ularning semantik jihatdan oldinga qarab harakatlanish, orqaga qaytish, man etish, to'sish, yo'q qilish, aylanma yo'nalishda harakatlanish, chiqish va ketish, biror joyga yetib kelish, tezlashish va yugurish, sekin harakatlanish, biror joyga kirish, uchrashuv, tepaga harakatlanish ma'nolaridagi hamda muayyan holatlar bilan bog'liq harakat fe'llariga ajratilganligini ko'rdik. Qur'oni Karimda kelgan insonning harakat

yo'nalishi ma'nosini beruvchi ko'plab fe'llar oldinga qarab harakatlanish ma'nosiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, Qur'oni Karimda kelgan inson bilan bog'liq harakat fe'llari umumiy ravishda payg'ambarlar, nabiyalar bilan bog'liq bo'lib, xususan, Yusuf, Ibrohim suralarida ushbu ma'noga ega bo'lgan ko'plab fe'llarni uchratish mumkin. Ba'zi harakat fe'llari insonlarning muayyan sinfi bilan bog'langan. Shuningdek, ushbu fe'llar ogohlantirish va xushxabar berish ma'nosida kelgandir.

"افعال في القرآن الكريم و دلالاتها في السياق القراني حرف الاف" ning "دكتور بريهي شياع الثويني" ilmiy ishida Qur'oni Karimda kelgan "ا" arab alifbosi alif harfi bilan boshlangan barcha fe'llarning ma'nolarini ko'rib chiqqan. "معجم سميح عاطف الزين" ning "دكتور بريهي شياع الثويني" ilmiy ishi "تفسير مفردات الفاظ القرآن الكريم" ilmiy ishiga asoslanib yaratilgan. Ushbu asarda Qur'oni Karimda kelgan *kelmoq* harakat fe'lining 16 ta semantikasini sharhlagan<sup>1</sup>.

O'zbek tilidagi "kelmoq", harakat tushunchasini ifodalovchi leksemalardan biri hisoblanadi. Kelmoq fe'lining "O'zbek tili izohli lug'ati"da 14 xil ma'nosi ifodalangan<sup>2</sup>.

"معجم المعاني الجامع" izohli lug'atida kelmoq harakat fe'lining 24 ta ma'nosi ifodalangan<sup>3</sup>. Har ikkala tildagi izohli lug'atlarda berilgan ushbu fe'llar ma'nolarining miqdori o'rtasida sezarli farq bor. "O'zbekcha-Arabcha As-Sulton lug'at"da esa kelmoq fe'lining 15 dan oshiq ma'nolari misollar bilan keltirilgan<sup>4</sup>. Hozirgi arab adabiy tili leksikasining deyarli barcha qatlamlarini o'z ichiga olgan "An-na'im-النعم" arabcha-o'zbekcha lug'atida keltirilgan "kelmoq" harakat fe'lining 17 ta ma'nosi berilgan<sup>5</sup>.

Kelmoq fe'lining bosh ma'nosi "yurish, uchish yoki transport vositalari bilan so'zlovchi turgan tomonga, joyga yoki so'zlovchi ko'rsatgan, aytgan joyga yaqinlashmoq, yetmoq"<sup>6</sup>. *Poezd kelyapti. Yaqinda qaldirg'och keladi. Cho'lga suv keldi.*

"معجم المعاني الجامع" izohli lug'atida kelmoq fe'lining bosh ma'nosi biror shaxshning yoki biror hodisaning kelishi ifodalangan. Shu bilan birga *kelmoq* fe'lining predloglar bilan birga kelishi aytib o'tilgan.

أتى / أتى ب / أتى علي يأتي ، اني ، أتيا وإتيانا ، فهو و أت ، والمفعول ماتي - للمتعدى و أتى الشخص : جاء وحضر ، وصل ، نزل وحل . سوف يأتي يوم الحساب بيننا أجلا أو عاجلا

O'zbek tilidagi *kelmoq* leksemasining bosh semasi anchagina sodda ko'rinishda bo'lsa-da, mazmunan arab tilidagi *kelmoq* leksemasiga to'la muvofiq keladi.

Kelmoq fe'li vaqt, fasl, mavsum ma'nolarini bildiruvchi so'zlar bilan kelganda "boshlanmoq, yetishmoq" ma'nosini ifodalaydi<sup>7</sup>. *Bahor keldi. Qish keldi. Paxta terimi mavsumi keldi.* Kuzatishlarimiz jarayonida arab tilida bunday holatni uchratmadik. Arab tilida vaqt, fasl, mavsumga nisbatan بدأ yoki ابتدا (boshlamoq, boshlanmoq) fe'llari *kelmoq* ma'nosida qo'llanadi. Arab tilidagi أتى fe'lining sinonim ma'nodosh fe'llaridan biri جاء bilan ham kelishini mumkin. *جاء الربيع bahor keldi*<sup>8</sup>.

O'zbek tilidagi *kelmoq* fe'lining bosh ma'nosining xos semalaridan "chiqqan joyiga qaytib *kelmoq*, qaytmoq"dir. *Ha, aytgandek, qudangiznikiga yuborgan kishingiz keldimi?* (A.Qodiriy)

<sup>1</sup> "افعال في القرآن الكريم و دلالاتها في السياق القراني حرف الاف" دكتور بريهي شياع الثويني

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

<sup>3</sup> "معجم المعاني الجامع"

<sup>4</sup> "O'zbekcha-arabcha As-Sulton lug'ati", "Hilol nashr" MCHJ nashriyoti, Toshkent-2011

<sup>5</sup> "An-na'im-النعم" arabcha-o'zbekcha lug'ati, Toshkent-2003

<sup>6</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

<sup>7</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

<sup>8</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

O'zbek tilidagi kelmoq fe'lining "chiqqan joyiga qaytib kelmoq, qaytmoq" ma'nolari arab tilida *اب / كر / عاد / رجع* - qaytmoq, chiqqan joyiga qaytib kelmoq fe'llari bilan ifodalanadi. Masalan;

U yurtiga qaytib keldi- *عاد الى وطنه / رجع الى وطنه*

Ovoz, tovushga nisbatan "eshitilmoq" semasi kelmoq leksemasining bosh ma'nosi qatoriga kiritiladi: Oyoq tovushi to'xtab, narigi yoqdan usta Olimning tovushi keldi (A.Qodiriy).

Arab tilida esa, ovozga nisbatan majhul nisbatdagi *eshitilmoq* semasi emas, balki aniq nisbatdagi *eshitmoq* semasi qo'llanadi. Biz bunga Qur'oni Karimdagi "Sod" surasining 21 oyati, "Alg'oshiyat" surasining 1 oyati, "Toho" surasining 9 oyatlarini misol qilishimiz mumkin. Biroq, shunisi e'tiborga molikki, ushbu oyatning ingliz tilidagi tarjimasida *kelmoq* fe'li *eshitmoq*<sup>9</sup> ma'nosida, o'zbek tilidagi tarjimasida "xabar keldi"<sup>10</sup> ma'nosida tarjima qilingan. Shuni qo'shimcha qilib aytishimiz mumkinki, *دكتور بريهي شياع الثويني* ning *افعال في القران الكريم و* "دلالاتها في السياق القراني حرف الاف" ilmiy ishida Qur'oni Karimda kelgan "ا" arab alifbosi alif harfi bilan boshlangan barcha fe'llarning ma'nolarini ko'rib chiqqan. Shu jumladan kelmoq "اتي" harakat fe'lini ham sharhlagan. Qur'oni Karimda kelmoq fe'lining 17 ta ma'nosidan 8 ma'nosini *eshitmoq* semasini keltirib o'tgan hamda oyatlardan misollar keltirgan.

O'zbek tilidagi paydo bo'lmoq, nasib bo'lmoq, qismatiga, boshiga tushmoq semalari kelmoq leksemasining ma'nosini beradi<sup>11</sup>. Masalan, *Qayg'u ketib, shodlik keldi. Unga baxt keldi. Bizga omad keldi.*

Ammo arab tilidagi *اتي* fe'li ushbu qatordagi faqatgina paydo bo'lmoq ma'nosini o'z ichiga qamrab oladi. Nasib bo'lmoq, qismatiga, boshiga tushmoq ma'nolarini esa, aynan arab tilidagi ekvivalent so'zlari orqali ifodalash mumkin. Masalan, u menga katta quvonch olib keldi<sup>12</sup>- *احث ( جلب ) سرورا كبيرالي / سرنلي*

Istak qo'shimchalari -gi(-ki,-qi), -gu (-g'u,-qu) va egalik qo'shimchasini olgan fe'l shakli bilan birikkanda shu fe'l bildirgan harakatni bajarish istagini bildiradi<sup>13</sup>. *Ko'rgim keldi, kulgisi keldi.* Arab tilida esa, biz bu holatni istak maylini hosil qilish uchun qo'llaniladigan maxsus modal fe'llar hamda yuklamalar orqali ifodalaymiz. Masalan, uyqusi kelmoq<sup>14</sup> - *اراد ان ينام*

O'zbek tilidagi evaziga tushmoq, olinmoq, to'g'ri kelmoq ma'nosidagi fe'llar<sup>15</sup>. *Bu pulga ko'p narsa keladi.* O'zbek tilidagi *kelmoq* fe'li evaziga tushmoq, olinmoq, to'g'ri kelmoq semalariga to'g'ri kelsa, arab tilida esa, evaziga tushmoq, olinmoq, mos kelmoq fe'llari *اتي kelmoq* fe'li bilan ifodalanmaydi. Ushbu ma'nolarni arab tilidagi aynan muvofiq ekvivalent orqali ifodalashimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, "As-Sulton o'zbekcha-arabcha lug'at"ida *to'g'ri kelmoq* fe'lining 10 ta ma'nosi misollar bilan keltirilgan. Masalan:

To'g'ri kelmoq- *لاق ب / صلح ل / طابق / ناسب / وافق (الثوب مسلا) // واجه / قابل وجهها بوجه // اضطر*

Bu senga to'g'ri kelmaydi- *هذا لا يليق بك*

Bu poyafzal unga to'g'ri keldi- *هذا الحذاء وافق قدمه / كان هذا الحذاء على قد قدمه*

U to'g'ri kelgan joyda uxlab ketaveradi- *ينام حيث ما اتفق*

U kitobning to'g'ri kelgan joyini ochdi- *فتح الكتاب حيث ما اتفق*

To'g'ri sening oldingga keldim- *اتيت اليك مباشرة*

<sup>9</sup> The Holy Quran. – India: Goodword Books, 2017

<sup>10</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Qur'oni Karim

<sup>11</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

<sup>12</sup> As-Sulton "O'zbekcha-arabcha lug'at, "Hilol nashr" MCHJ nashriyoti, Toshkent-2011.-566b

<sup>13</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

<sup>14</sup> Ibrohimov N., Hasanov B., Musayev O., Ibrohimov B., O'zbekcha-arabcha lug'at.-Toshkent, 2000

<sup>15</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

صادق ( وافق) اليوم الاول من ايلول يوم الجمعة - Birinchi sentabr jumaga to'g'ri keladi-

اضطر الى القيام بذلك / كان عليه ان يعمل ذلك - Unga buni qilish to'g'ri kelib qoldi-

سيضطر الى الرحيل - U jo'nashga to'g'ri kelyapti-

O'zbek tilidagi kelmoq fe'li hajm, o'lchov, miqdor bildiruvchi so'zlar bilan birikkanda, shaxs yoki predmetning shu so'zlar bildirgan o'lchov yoki miqdor darajasida ekanligini bildiradi. *G'oz besh kilo keladi, terakning balandligi-15-16 metr keladi, har bir olma koptokdek keladi.* Arab tilida esa bu holat kuzatilmaydi. Ushbu ma'nolarni arab tilidagi aynan muvofiq ekvivalent orqali ifodalashimiz mumkin. Masalan,

تزن السمكة ثلاثة كيلوغرامات<sup>16</sup> - keladi;baliq uch kilogram

- هذا القميص ليس على مقياسي - Bu ko'ylak mening o'lchamimga to'g'ri kelmas ekan.

Jo'nalish kelishigi fe'ldagi ayrim so'zlar bilan birikkanda shu so'z bildirgan narsaning bayoniga, izohiga, muhokamasiga o'tish ma'nosini bildiradi<sup>17</sup>. *Endi Bo'taning ustidagi anavi gapga kelsak, bu tuhmat edi.* S.Ahmad. *Hukm. Endi paxtani nimaga kuzda sotmay, yozda sotayotganiga kelsak, buning tagida gap ko'p.*

Arab tilida في fe'li اتى predlogi hamda ما yuklamasi bilan birga kelganda, u gapda qisman izoh, bayon ma'nosini bildiradi.

Shuningdek, o'rin-payt kelishigi ma'nosidagi في predlogi جاء fe'li bilan birga birikib kelganda, biror-bir voqea-hodisani ifodalash ma'nosini bildiradi. Masalan, وقد جاء في الامثال ان الصداقة ضرورة للانسان Maqollarda aytilishicha, do'stlik inson uchun kerakdir.

كما ياتي navbatdagi; ما ياتي

Jo'nalish kelishidagi fe'ldagi ayrim mavhum so'zlar bilan birikib, shu so'z bildirgan tushunchaga erishishni, uni to'g'ri deb bilishni ifodalaydi. *Qanday fikrga keldingiz? Men shunday xulosaga keldim.* Arab tilida bunday holat kuzatilmaydi. Ushbu ma'nolarni arab tilidagi aynan muvofiq ekvivalent orqali ifodalashimiz mumkin. Masalan;

خطر لي فكرة / خطر لي خاطر / خطرت لي ببال هذه الفكرة / خطرت على ذهني - Bu fikr miyamga keldi- هذه المخاطرة

توصل الى استنتاج / استنتج - Bir xulosaga kelmoq-

Chiqish kelishigi fe'ldagi shaxs bildiruvchi so'zlar bilan birikkanda, biror xatti-harakatning shu so'z bildirgan shaxs bajarishini bildiradi<sup>18</sup>. Masalan, *bu ish sendan kelgan. – Sidiqjonning rangi bo'zarib ketti... Men dayus emasman! Bunaqa qo'shmachilik sizlardan keladi.* (A.Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari")

Ushbu holatda o'zbek tilida "kelmoq" fe'li zamirida muayyan xatti-harakatni amalga oshirishga qodirlik ma'nosi ham qisman mavjud bo'ladi. Biroq arab tilida bunday holat faqatgina qilmoq, bajarmoq ma'nosini anglatuvchi اتى fe'li bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, arab tilidagi kelmoq fe'li qo'shimcha ravshda qila olmoq- استطاع ma'nosini bermaydi.

Chiqish kelishigi fe'ldagi so'zlar bilan birikib, shu so'z bildirgan narsa haqida gap borishini yoki gapirish kerakligini bildiradi<sup>19</sup>. Masalan, *qani choydan keling, quruq gapni qo'ying, ishdan keling. Biri bo'gdan kelsa, biri tog'dan keladi.* Matal.

Arab tilida esa, bunday fe'llar o'zining muvofiq ekvivalenti bilan ifodalanadi.

<sup>16</sup> IbrohimovN., HasanovB., MusayevO., IbrohimovB., O'zbekcha -arabcha lug'at.-Toshkent, 2000.

<sup>17</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

<sup>18</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

<sup>19</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.

Belgi, xususiyat bildiruvchi ayrim so'zlar bilan birikkanda "bo'lmoq" ma'nosini bildiradi. *Sutsiz sigir suzog'on keladi. Maqol. Ot jonivor juda eslik keladi. M.Ismoilij, "Farg'ona tong otguncha"*.

Arab tilida *صار* fe'li *ya'ni bo'lmoq, yuz bermoq, sodir bo'lmoq, aylanmoq* fe'li ma'nosida kelishi mumkin, bunda ushbu fe'l ifodalab kelayotgan belgi-xususiyat tushum kelishigida noaniq holatda keladi. Qur'oni Karimning Yusuf surasining 93 –oyatida shunday keladi: *"أذهبوا بقميصي هذا فالقوه على وجه أبي يأت بصيراً"*

"Mening mana bu ko'ylagimni olib borib, otamning yuziga tashlangiz, ko'zi ochilur."

"يأت بصيراً، أي يصير بصيراً أو المراد يأت إلي وهو بصير، أو يرجع بصيراً إذا كان من قبل بصيراً"

Ushbu oyatdagi *يأت* kelmoq fe'lining aylanmoq-*صار* ma'nosida kelishini shunday izohlaydi. Ya'ni u ko'radigan bo'ldi, bundan murod u mening oldimga ko'zi ochilgan holda (ko'radigan) yoki u huddi avvaldagidek, ko'zi ochilib qaytadi.

Biz odatda *صار* fe'lini kelmoq ma'nosida o'rganganmiz. Biroq ushbu oyatda *صار* fe'li (bo'lmoq, sodir bo'lmoq, aylanmoq) ma'nosida kelgan.

II-shaxs buyruq fe'lida (kel, keling) da'vat, chaqiriq, undash, qistash kabi ma'nolarni bildiradi. *Kel, gapingni qo'y'chi, ovqat-povqating bormi? G'.G'ulom, Shum bola. Keling, hazilingizni qo'ying, tillani chaqirib bering.*

Arab tilida bunday holat kuzatilmaydi. Ushbu ma'nolarni arab tilidagi aynan muvofiq ekvivalent orqali ifodalashimiz mumkin.

تعال تفرج - *o'zing kelib ko'r*<sup>20</sup>

زرنا من جديد - biznikiga yana kelib turing

لنتعارف - keling tanishamiz

دعونا نطبخ الارز البخاري بصورة انديجانية! - kelinglar andijoncha osh pishiramiz

دعونا نتكلم بصراحة! - keling dangal gaplashamiz

فلنذهب من هنا - kel bu yerdan ketaylik (ketamiz)

O'zbek tilida *kelmoq* fe'li frazeologik iboralar tarkibida ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan ayrim so'zlar ma'nolari taqqoslanayotgan fe'llar bilan kelganda, ibora hosil qiladi<sup>21</sup>: Uni ko'rgan zahotiy oq esimga keldi. (A.Qahhor)

Arab tilida esa, bunday holatda muvofiq ekvivalentlar qo'llanadi. Masalan,

تقطع القلب لمجرد سماع هذه الانباء - bu xabarni eshitib yurak larzaga keldi<sup>22</sup>

ليت الشباب يعود - koshki yoshlik qaytib kelsa

تروح (اروح) الماء / انتن الماء - Suvning hidi kelib qolibdi

اهلا وسهلا! مرحبا بك! - Xush kelibsiz

- i (b) ravishdosh shaklidagi yetakchi fe'l vazifasida qo'llanadi va harakatning ancha ilgari davom etayotganligini bildiradi. Nurining buyruqlariga so'zsiz bo'ysunub kelgan. *Gulnor, hech nima o'ylamasdan o'rnidan turdi. Oybek, "Qutlug' qon". Men bu sirni shu choqqacha ichimda saqlab kelayotgan edim, endi aytmasam bo'lmaydi. A.Qahhor, "Xotinlar"*.

Arab tilida kelmoq fe'li bunday ma'noni ifodalamaydi. Mazkur ma'noni ifodalash uchun shu mazmuni bildiruvchi muqobil variantlardan foydalanish lozim. Arab tilida bunday holatda *زال* yordamchi fe'li qo'llaniladi.

<sup>20</sup> As-Sulton. O'zbekcha-arabcha lug'at, "Hilol nashr" MCHJ nashriyoti, Toshkent-2011.-443b

<sup>21</sup> Shabanov D.K. Turk va o'zbek tillarida faol harakat fe'llarining semantikasi. -Toshkent, 2017

<sup>22</sup> "As-Sulton" O'zbekcha-arabcha lug'at, "Hilol nashr" MCHJ nashriyoti, Toshkent-2011.-946b



Otlar va ba'zi boshqa so'zlar bilan birikib, qo'shma fe'l yasaydi. Masalan, *duch kelmoq*, *zo'r kelmoq*, *yaqin kelmoq*, *teng kelmoq*. Ushbu ma'nolarni arab tilidagi aynan muvofiq ekvivalent orqali ifodalashimiz mumkin.

Masalan;

Duch kelmoq- لاق/ التقي / وجد/ قابل / تلاق/ وقع في

Ishda mashaqqatlarga duch kelmoq<sup>23</sup>- لاق صعوبات في العمل

Tasodifan duch kelmoq- صادف / قابل مصافاة

Men unga klubda ko'p duch kelaman- اني التقيه في النادي كثيرا

Yuzma-yuz kelmoq- تواجه/ قابل وجهها بوجه // قابل/ صادف

Ular bir-birlariga duch kelib qoldilar<sup>24</sup>- وقعوا في بعضهم

Yaqin kelmoq- اقترب من / قرب من/ دنا من

Eng yaqin yo'ldan kelmoq- استقرب / اتى من اقرب الطريق

Teng kelmoq- استوى

Zo'r kelmoq- تغلب على / استظهر على / غلب

Yuzaga kelmoq- ظهر/ بدا/ بان/ برز// نشأ// تحقق

Yangi qiyinchiliklar yuzaga keldi<sup>25</sup>- نشأت صعوبات جديدة

G'azabi kelmoq- غضب على / تغضب على/ انغاض/ اغتاض/ سخط على

G'ashi kelmoq- زعل/ تهيج/ انفعال

Kimgadir g'ashi kelmoq- كدر على احد

G'ashi kelgan- زعلان/ زعل/ متهيج/ منفعل

Bas kelmoq- ساوى/ عادل

Baroridan kelmoq- نجح/ افلج/ فاز

Hojatim baroridan keldi- نجحت حاجتي

Uning ishi baroridan keldi<sup>26</sup>- نجح عمله

Bordi-keldi qilmoq- عاشر/ خالط// لامس/ اتصل

Kim bilandir doimiy bordi-keldi qilib turmoq- عاشر احدا باستمرار / كانت له اتصالات دائمة باحد

Qarindoshlik bordi-keldisi<sup>27</sup>- صلة الرحم

Dunyoga kelmoq- ظل على الدنيا / ولد // خرج الى الوجود

Yod(i)ga kelmoq- خطر ل/ سنج/ عرض

Malol kelmoq- مل/ امل// صعب على

Qayta-qayta o'qishlik menga malol kelmaydi- لا امل من تكرار القراءة

Quloqqa malol kelmoq- خدش اذنه

Agar sizlarga malol kelmasa<sup>28</sup>...- اذا لم يكن عبئا عليكم ف... / من فضلكم /

Rahm (i) kelmoq- تعطف على/ عطف على/ شفق على / شعر مع// رحم

Rahmi kelmaganga (qilmaganga) rahm qilinmas- من لا يرحم و لا يرحم

Ustun kelmoq- فاز ب/ ظفر ب/ غلب على// تفوق على / فاق

Hush (i)ga kelmoq- عاد الى وعيه / صحا/ افاق/ ثاب الى نفسه (رشده)

U 24 soat ichida hushiga kelmaydi (hushida bo'lmaydi)- لا يعي شيئاً مدة اربع و عشرين ساعة

Mast hushiga keldi- صحا السكران / افاق السكران

Xush kelmoq- اهلا و سهلا! مرحبا بك!

<sup>23</sup> "As-Sulton". O'zbekcha-arabcha lug'at, "Hilol nashr" MCHJ nashriyoti, Toshkent-2011. 211-b

<sup>24</sup> O'sha yerda

<sup>25</sup> O'sha asar. - 950b

<sup>26</sup> O'sha asar.-77b

<sup>27</sup> O'sha asar.-126b

<sup>28</sup> "As-Sulton". O'zbekcha-arabcha lug'at, "Hilol nashr" MCHJ nashriyoti, Toshkent-2011. 465-b

- Es(i)ga kelmoq - سنج/ عرض / تذکر/ ذکر // خطر بباله -  
 Esimga kelmabdi<sup>29</sup> - لم یدر بخاطري  
 Erta kelmoq - بدر / بادر / باکر -  
 Ertalab kelmoq - صبح/ اتی صباحا -  
 O'ng(i)dan kelmoq - صلح ل/ لبق ب/ لاق ب/ وافق -  
 Qo'l(i)dan kelganicha - علی قدر الامکانیة / علی قدر الامکان او الاستطاعة / بقدر الامکان / بقدر المستطاع -  
 Qo'l(i) dan kelmoq - استطاع / قدر علی / تمكن / امکنه ان -  
 G'olib kelmoq - غلب/ تغلب علی -  
 Havas(i) kelmoq - غبط/ اشتھی / هوی/ غوی/ حب/ احب // حرص علی -  
 Mening bu kishiga havasim keladi<sup>30</sup> - اغبط هذا الرجل / اتمنی مثل حال الرجل -  
 Gal(i) kelmoq - جاء نوبة -  
 Endi mening galim (navbatim) (keldi<sup>31</sup>) - جاءت نوبتي/ الان دوري -  
 Galalashib kelmoq - اتی (جاء) افواجا<sup>32</sup> -  
 Hayajonga kelmoq<sup>33</sup> - تهيج/ هاج/ اهتاج// ثار// اضطرب/ قلق -  
 Fursat(i) kelmoq<sup>34</sup> - ان الاوان -  
 Larzaga kelmoq - تزرع/ تفلل// ارتعش/ ارتعد/ ارتجف/ اقشعر -  
 Qaytib kelmoq - رجع/ عاد/ كر / اب -  
 Hid kelmoq - فاح/ انتشرت رائحته -  
 Gullarning hidi kelyapti - يفوح الزهر -  
 Tutunning hidi kelyapti - يفوح الدخان -  
 Suvning hidi kelib qolibdi - تروح ( اروح) الماء / انتن الماء -  
 Vaqt (i) kelmoq - ان / اتی / حان الوقت /  
 Yetib kelmoq - وصل / بلغ/ ورد المكان -  
 Mos kelmoq - لاق / تاسب/ طابق /  
 Yo'qlab kelmoq - تفقد/ افتقد/ عاد/ زار// استخبر عن// اتی لرؤيته/ جاء لرؤيته -  
 Sizni sog'indim shunga sizni yo'qlab keldim - كنت مشتاقا اليك و لذلك اتيت لرؤيتك -  
 Xulosaga kelmoq - توصل الى استنتاج / استنتج -  
 Olib kelmoq - جاء ب/ اجاء ب/ اتی ب/ احضر// احث/ سبب/ ادی// جلب/ اجلب/ استورد -  
 Bu yaxshilikka olib kelmaydi - هذا لا يؤدي الى خير -  
 Tosh olib kelmoq - اتی بحجر/ جاء بحجر -  
 Chet eldan mollarni (tovarlarni) olib kelmoq - استورد (جلب) البضائع من الخارج -  
 Bolani uyga olib kelmoq - جاء بالطفل الى البيت -  
 Bizga ikki porsiya kabob olib keling - اجلب (اجلب) لنا طبقين من كباب -  
 Ofat kelmoq - اف/ اصابته افة -  
 Shaharga qurg'oqchilik (qahatchilik) keldi - اف البلاد / اصابتها افة من قحة -  
 Pochta kelmoq - ورد مراسلات -  
 Qarshilikka duch kelmoq - واجه المقاومة -  
 Siyosat qarshilikka duch keldi - واجهت السياسة المقاومة -  
 Qahri kelmoq - غضب علی/ تغضب علی/ سخط علی/ تغيط / اغتاظ/ اغاظ -  
 Kun oralab kelmoq - غب / اتاه يوما و تركه يوما -

<sup>29</sup> O'sha asar.-230b

<sup>30</sup> O'sha asar. - 285b

<sup>31</sup> O'sha asar.-251b

<sup>32</sup> "As-Sulton" O'zbekcha-arabcha lug'at, "Hilol nashr" MCHJ nashriyoti, Toshkent-2011.-251b

<sup>33</sup> O'sha asar.87b

<sup>34</sup> O'sha asar.-223b

ilmiy "افعال في القرآن الكريم و دلالاتها في السياق القراني حرف الاف" ning doktor بريهي شياع الثويني ishida Qur'oni Karimda kelgan "ا" arab alifbosi alif harfi bilan boshlangan barcha fe'llarning ma'nolarini ko'rib chiqqan. Shu jumladan kelmoq "اتى" harakat fe'lini ham sharhlagan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytamizki, o'zbek tilidagi "kelmoq" harakat fe'lining arab tilida ifodalanishida, o'xshash va farqli jihatlar mavjud. O'zbek tilida ushbu harakat fe'lining bosh semasi anchagina sodda ko'rinishda bo'lsa-da, mazmunan arab tilidagi "kelmoq" leksemasiga mos keladi. O'zbek tilida ushbu fe'l o'zi qaratilgan obyektning, asosan, tushum, o'rin-payt, chiqish va jo'nalish kelishiklarida kelishini talab qilsa, arab tilida ular tushum kelishigi yoki muayyan kelishik ma'nosini beruvchi predlog bilan ifodalanadi. O'zbek tilidagi "kelmoq" fe'liga xos ba'zi ma'nolarni ifodalashda, ularning aynan arabcha muqobil variantini qo'llash lozim bo'lsa, ba'zi holatlarda esa o'zbek tilidagi ushbu harakat fe'lining anglatgan ma'nolari arab tilida ham, aynan "kelmoq" fe'li bilan ifodalanadi, biroq ushbu holatda arab tilida "kelmoq" ma'nosini beruvchi sinonim fe'llardan kutilgan ma'noni ifodalovchi aynan bir fe'lni tanlash lozim. O'zbek tilidagi harakat fe'lining istak va egalik qo'shimchalarini olgan fe'l shakli bilan birikkan ko'rinishi arab tilida modal so'zlar, yuklamalar yordamida ifodalanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "افعال في القرآن الكريم و دلالاتها في السياق القراني حرف الاف" دكتور بريهي شياع الثويني
2. "معجم المعاني الجامع"
3. The Holy Quran. – India: Goodword Books
4. Alouddin Mansur. Qur'oni Karimning ma'nolari tarjimasi. – Toshkent : «Cho'lpon», 1992.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi. "Hilol nashr" MCHJ nashriyoti, Toshkent-2011.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati.-M.: Rus tili.-1981.-1j.
7. "O'zbekcha-arabcha As-Sulton lug'ati", "Hilol nashr" MCHJ nashriyoti, Toshkent-2011.
8. "النعيم-An-na'im" arabcha-o'zbekcha lug'ati, Toshkent-2003.
9. IbrohimovN., HasanovB., MusayevO., IbrohimovB., O'zbekcha-arabcha lug'at.-Toshkent, 2000.
10. ShabanovD.K. Turk va o'zbek tillarida faol harakat fe'llarining semantikasi.-Toshkent, 2017.